

**TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**TURSUNOVA DILRABO KUDRATILLAYEVNA**

**BOLALAR PROFILAKTIK POYABZALLARI KONSTRUKSIYASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**05.06.03 – Teri, mo'yna, poyabzal va teri-galantereya buyumlari texnologiyasi**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSIFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по техническим наукам**  
**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD)  
on technical science**

<b>Tursunova Dilrabo Kudratillayevna</b> Bolalar profilaktik poyabzallari konstruksiyasini takomillashtirish.....	3
<b>Турсунова Дилрабо Кудратиллаевна</b> Совершенствование конструкции детской профилактической обуви .....	21
<b>Tursunova Dilrabo</b> Improving the design of children's preventive shoes .....	39
<b>E'lon qilingan ishlar ro'uxati</b> Список опубликованных работ List of published works .....	42

**TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**TURSUNOVA DILRABO KUDRATILLAYEVNA**

**BOLALAR PROFILAKTIK POYABZALLARI KONSTRUKSIYASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**05.06.03 – Teri, mo'yna, poyabzal va teri-galantereya buyumlari texnologiyasi**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkumasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD/T1187 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.titli.uz](http://www.titli.uz)) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Ilxamova Maloxat Utkurovna**  
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Rasmiy apponentlar:**

**Nigmatova Fatima Usmanovna**  
texnika fanlari doktori, professor

**Murayev Sayfullo Safoyevich**  
texnika fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Namangan muhandislik-texnologiya instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.T.08.01 raqamli bir martalik Ilmiy kengashning 2022 yil «14» mart soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100100, Toshkent shahri, Shohjaxon ko'chasi, 5. Tel: (+99871) 253-06-06; faks: (+99871) 253-36-17, e-mail: [titlp\\_info@edu.uz](mailto:titlp_info@edu.uz), TTYE91 ma'muriy binosi, 2-qavat, 222-xona).

Dissertatsiya bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (130 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent shahri, Shohjaxon ko'chasi, 5. Tel: (+99871) 253-06-06, 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2022 yil 24 fevral kuni tarkiblandi.  
(2022 yil 24 fevral № 130 raqamli ro'yxatga olingan)



**I.K. Sabirov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, t.f.d.

**A.Z. Masiatov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy Kengash Ilmiy kotibi, t.f.d., professor

**N.B. Mirzayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi bir martalik Ilmiy seminar raisi, t.f.n.

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda bolalar va o'smirlarning turli xil kasalliklari ko'payib bormoqda, bu ularni oldini olish vositalariga bo'lgan ehtiyojiga, shuningdek bolalar profilaktik poyabzallarni qo'llash hozirgi kunda yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. "Dunyo miqyosida bolalar oyoq panjalarining turli deformatsiyalanishi 35-58% tashkil etadi, bu esa profilaktik poyabzallarga bo'lgan ehtiyojning oshishiga olib keladi"<sup>1</sup>, shuning uchun bolalar poyabzali ishlab chiqarishda takomillashtirilgan konstruksiyalarni va texnologiyalarni amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan bolalar poyabzallarining profilaktik va gigiyenik xususiyatlarini yaxshilash vazifalari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda ishlab chiqarilayotgan bolalar profilaktik poyabzallari konstruksiyalarini takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, bolalar poyabzali xavfsizligini ta'minlash, zamonaviy materiallarni joriy etish, ishlab chiqarilayotgan poyabzal turlarini kengaytirish, konstruksiyalarni takomillashtirish, poyabzalning gigiyenik xususiyatlarini va qulayligini yaxshilash, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, tannarxni pasaytirish va poyabzal ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikadamizda charm-poyabzal ishlab chiqarishda xomashyo, mehnat hamda energiya sarfini kamaytirish, resurstejamkor texnologiyalar, yangi modellarni ishlab chiqish va joriy etish muddatini qisqartirish imkonini beradigan zamonaviy raqamli boshqarish moslamalaridan foydalanish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. Bugungi kunda, charm-poyabzal sanoati jadal rivojlanib kelmoqda, bu mamlakat iqtisodiyotining tez rivojlanishi, sanoatning investitsiya salohiyatining oshishi va hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi kuzatilmoqda. 2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasini Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan "Charm-poyabzal sohasini rivojlantirish orqali ishlab chiqarish hajmini 3 baravarga ko'paytirish. Hududlarda charm mahsulotidan poyabzal va charm-attorlik tayyor mahsulotlari, shuningdek, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishdagi mavjud bo'shliqlarni to'ldirish orqali 2026-yilga borib sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini oshirish bunda, tayyor charm mahsulotlarini 2,3 barobarga, poyabzal mahsulotlarini 2,8 barobarga, charm - attorlik mahsulotlarini 2,6 barobarga, charmdan kiyim-kechaklarni 2 barobarga, import o'rnini bosuvchi butlovchi va boshqa turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishni 1,3 barobarga hamda sohaning eksport ko'rsatkichlarini 1 150,0 mln AQSh dollariga yetkazish"<sup>2</sup> kabi muhim vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, bolalar poyabzalining assortimentini kengaytirish,

---

<sup>1</sup> B. Fritz, M. Mauch, 3 - Foot development in childhood and adolescence, Editor(s): A. Luximon, In Woodhead Publishing Series in Textiles, Handbook of Footwear Design and Manufacture, Woodhead Publishing, 2013, P. 49-71, <https://doi.org/10.1533/9780857098795.1.49>.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 son "2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasini Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi Farmon

profilaktik xususiyatlarga ega yangi konstruksiyalarini yaratish va ularni respublika korxonalarida joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 maydagi PQ-3693-sonli «Charm-poyabzal va mo'ynachilik sohasini rivojlantirish va eksport salohiyatini oshirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2021 yil 8 fevraldagi PQ-4982-sonli «Charm-poyabzal va mo'ynachilik sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishiga muvofiq IV "Tibbiyot va farmakologiya" (amaliy tadqiqotlar dasturi PPI-10: Yangi texnologiyalar va diagnostika, davolash, kasalliklarning oldini olish usullarini rivojlantirish orqali aholi salomatligini muhofaza qilish) doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Bolalar oyoq panjasi bo'yicha antropometrik tadqiqotlar va bolalar poyabzali konstruksiyalarini takomillashtirish bilan xorijda Buldt A.K. (Avstraliya), Morrison S.C., Menz H.B. (Buyuk Britaniya), Chang H.W. (Tayvan), Kiseleva M.V., Sineva O.V., Milyushkova Yu.V., Petryakova V.G. (Rossiya) va boshqalar shug'ullanishgan. Oyoq panjasi deformatsiyalarining oldini olish uchun poyabzal ishlab chiqarish zarurligi bo'yicha tadqiqotlar Potapova V.O., Kiseleva M.V., Zemnuxov O.A., Blagorodov A.A., Bordux D.O. (Rossiya), James A., Williams C., Klein C., Wegener C. (Avstraliya) va boshqalar tomonidan o'tkazilgan.

Respublikamizda antropometrik tadqiqotlar va ular asosida bolalar poyabzali konstruksiyalarini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar Haydarov A.A., Maksudova U.M., Ilxamova M.U., Musayev S.S. va boshqalar tomonidan bajarilgan.

Profilaktik xususiyatlarga ega bo'lgan poyabzal ishlab chiqarish sohasida ko'plab tadqiqotlar olib borilganligiga qaramasdan, mahalliy aholi oyoq panjalarining xususiyatlarini hisobga olgan holda, profilaktik bolalar poyabzalining ratsional konstruksiyasini yaratish bo'yicha tadqiqotlar yetarlicha o'tkazilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasida IOT-2015-2-15 "Bolalar va o'smirlar profilaktik (ortopedik) va sport poyabzalini loyihalash va ishlab chiqarish bo'yicha takomillashtirilgan usullarni joriy etish" (TTESI, 2015-2016 yy.) mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** bolalar oyoq panjalari deformatsiyalanishining oldini olish uchun profilaktik poyabzal konstruksiyasini takomillashtirishdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

profilaktik xususiyatlarga ega bolalar poyabzalini loyihalash holatini o'rganish;

profilaktik xususiyatlarga ega bolalar poyabzalining konstruktiv-texnologik xususiyatlari va ularga qo'yilgan talablarni tahlil qilish;

statistik parametrlarni aniqlash uchun maktabgacha yoshdagi bolalarning oyoq panjalarini antropometrik tadqiqotlarni o'tkazish;

bolalar oyoq panjalari orasida deformatsiyaning tarqalishini aniqlash va foiz nisbatlarini hisoblash;

tanavorni yig'ishda texnologik omillarining poyabzal ustki materiallar to'plami bikrligiga ta'sirini aniqlash;

valgus deformatsiyasi rivojlanishining oldini olish maqsadida bolalar poyabzalining takomillashtirilgan konstruksiyasini ishlab chiqish;

profilaktik xususiyatlarga ega bo'lgan ichki patak bog'lami konstruksiyasini takomillashtirish;

zamonaviy grafik dasturlardan foydalangan holda poyabzal detallarini seriyaga ko'paytirish uslubini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida bolalar oyoq panjalari va yassilik hamda valgus deformatsiyasining rivojlanishini oldini olish uchun poyabzal olingan.

**Tadqiqotning predmeti** profilaktik xususiyatlarga ega bolalar poyabzali konstruksiyasini takomillashtirish, assortimentni kengaytirish, moddiy xarajatlarni kamaytirishdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Ishda sotsiologik tadqiqot usullari, antropometrik o'lchovlar, plantografiya usuli, konstruktiv tahlil, eksperimentni rejalashtirish metodi, matematik statistika, tajriba natijalarini qayta ishlash va tahlil qilish usullari qo'llanildi.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

maktabgacha yoshdagi bolalar oyoq panjasining antropometrik xususiyatlarini hisobga olgan holda bolalar profilaktik poyabzali takomillashtirilgan konstruksiyasi ishlab chiqilgan, uning tovon qismi bog'laming bikirligi qo'llanilgan materiallarni va tanavorni yig'ish texnologik parametrlarini o'zgartirish orqali erishilgan;

antropometrik tadqiqot ma'lumotlari asosida maktabgacha yoshdagi bolalar oyoq panjalarining o'lchamlari (uzunligi va aylanasi) o'rtasidagi bog'liqlik asoslangan;

o'tkazilgan antropometrik tadqiqotlar asosida profilaktik qo'yma patak bog'lam detallarining uzunligi, kengligi, balandligi, joylashish kabi konstruktiv parametrlari aniqlangan va bolalar oyoq panjalari deformatsiyalarning tarqalishi foizlarda aniqlangan;

eksperimental tadqiqotlar asosida tanavorni yig'ishda poyabzal ustki materiallar to'plamining bikrligining o'zgarishi biriktiruvchi ip texnologik parametrlarga (choklar yo'nalish burchagi, choklar orasidagi masofa, biriktiruvchi ipning qalinligi) bog'liqligi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

olib borilgan tadqiqotlar asosida yassi oyoq panjasini va valgus deformatsiyasini oldini olish uchun profilaktik poyabzal va qo'yma patak konstruksiyalari ishlab chiqilgan;

bolalar poyabzaliga qo'llaniladigan bikir dastak uchun charmning sarfi kamayishi aniqlangan;

ishlab chiqilgan bolalar poyabzalini detallarini seriyaga ko'paytirish usuli yangi modellarni ishlab chiqarish va yetkazib berish muddatining, hozirda korxonalarda qo'llanilayotgan usullarga nisbatan, qisqartirilishi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** ushbu sohaning ma'lum natijalari bilan taqqoslash, nazariy tadqiqotlar natijalarini yetarliligini tekshirish, nazariy tadqiqot natijalari to'g'riligini tekshirish, nazariy ma'lumotlarni tatbiq etish va joriy etishning ijobiy natijalari bilan tekshirish, shuningdek, zamonaviy usullar va vositalar bilan sinovdan o'tkazish bilan asoslandi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati maktabgacha yoshdagi bolalar uchun profilaktik poyabzal konstruksiyasi yaratishning asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qo'yma pataklarning gigiyenik ko'rsatkichlari yaxshilangan va profilaktik xususiyatlarga ega bolalar poyabzali takomillashtirilgan konstruksiyalari yaratilgan, hamda zarur xususiyatlarga ega bo'lgan materiallardan foydalanish hisobiga ishlab chiqarish uchun moddiy xarajatlarning kamayganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Profilaktik xususiyatlarga ega bolalar poyabzali konstruksiyasini takomillashtirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

profilaktik poyabzallarni yangi konstruksiya asosida ishlab chiqarish sharoitida texnologik reglament "NAFIS" MCHJda joriy etilgan ("O'ZCHARMSANOAT" uyushmasining 2021 yil 8 noyabrdagi FB-7/2901-sonli ma'lumotnoma). Natijada amalga oshirilgan ishlanmalarning joriy etilishi bolalar profilaktik poyabzallarining gigiyenik va qulay xususiyatlarini yaxshilash, hamda bikir dastakga ishlatiladigan taglik charmni 47,6% kamaytirishga erishilgan;

bolalar profilaktika poyabzalining ishlab chiqilgan modellari "SKOROXOD ZAKAZ SERVIS" MCHJ va "MONOMAX" MCHJda joriy etilgan ("O'ZCHARMSANOAT" uyushmasining 2021 yil 8 noyabrdagi FB-7/2901-sonli ma'lumotnoma). Natijada import o'rnini bosuvchi mahsulotlardan foydalanish natijasida bolalar oyoq patologiyasi xavfi kamaydi, profilaktik xususiyatlarga ega bolalar poyabzali assortimenti kengaytirilgan;

AutoCAD tizimida bolalar poyabzallarini avtomatlashtirilgan seriyali gradatsiya usuli "SADIKOV OLIMJON NABIXO'JAEVICH" XK da joriy etilgan ("O'ZCHARMSANOAT" uyushmasining 2021 yil 8 noyabrdagi FB-7/2901-sonli ma'lumotnoma). Natijada bolalar poyabzalini yangi modellarni ishlab chiqarish va yetkazib berish muddatini 31% ga qisqartirish imkonini bergan.



**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari 5 ta Respublika va xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan.

Profilaktik qo'yma patakning tajriba namunalari "O'zbekiston xotin-qizlarining 100 ta eng yaxshi innovatsion loyihalari" III Respublika tanlovida namoyish etilgan.


**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish chop etilgan, shu jumladan Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyaning asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan jurnallarda 4 ta ilmiy maqola, shundan 2 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan va 1 ta foydali model uchun O'zbekiston Respublikasi patenti olingan.

**Dissertatsiya tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 122 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Profilaktik xususiyatlarga ega bolalar poyabzalini loyihalash masalasining holati**» deb nomlangan birinchi bobida ilmiy muammolarning hozirgi holati tahlili o'tkazilgan va profilaktik xususiyatlarga ega bolalar poyabzallarini loyihalash masalasi o'rganilgan, umumiy tasnifdagi bolalar uchun profilaktik poyabzalning o'rni aniqlangan, tasniflash sxemasi taklif etilgan (1-rasm), unga ko'ra profilaktik poyabzal nafaqat tibbiy, balki maishiy poyabzalga ham kiradi. Buning sababi shundaki, profilaktik poyabzal uning doimiy kiyilishida samaraliroq bo'ladi.



1-rasm. Tavsiya etilgan poyabzal tasnifi

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, poyabzalning qulaylik va profilaktik xususiyatlarini ta'minlashga yangi materiallardan foydalanish, oyoq kiyimlarini qulayligini oshirish uchun qo'yma profilaktik pataklari konstruksiyasini ishlab chiqish, shuningdek, oyoq kiyimning qattiqligini kamaytirish orqali erishish mumkin. Ushbu usullardan kompleks foydalanish poyabzalning profilaktik va qulaylik xususiyatlarini ta'minlash nuqtai nazaridan eng istiqbolli hisoblanadi.

Profilaktik xususiyatlarga ega bo'lgan ichki elementlari konstruksiyalari va bolalar poyabzal konstruksiyalarining patent ishlanmalarini tahlil qilish bugungi kunda ichki pataklarni ishlab chiqarishga ikki xil yondashuv mavjud degan xulosaga kelindi: individual oyoq parametrlari asosida ma'lum bir iste'molchi uchun ishlab chiqarish va o'rtacha oyoq panjasi parametrlari asosida ommaviy ishlab chiqarish.


Bundan tashqari, bolalar oyoqlarining turli patologiyalarining rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi bolalar profilaktika poyabzallarining mavjud konstruksiyalari o'rganildi va ularga qo'yiladigan talablar majmui belgilandi.

Tadqiqot muammolari bo'yicha chop etilgan ishlarning tahlili asosida tadqiqotning maqsadi va vazifalari aniqlangan.

Dissertatsiyaning **«Iste'molchilarning bolalar poyabzalida afzal ko'rishlarini o'rganish va maktabgacha yoshdagi bolalarning oyoq panjalarining antropometrik tadqiqotlar»** ikkinchi bobida maktabgacha poyabzalga nisbatan iste'molchilarning imtiyozlarini o'rganish natijalari va profilaktik xususiyatlarga ega bo'lgan bolalar poyabzali uchun mo'ljallangan talablar.

Olingan natijalarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, bolalar poyabzalining eng maqbul xususiyatlari poyabzalning tovon qismining qattiqligining pasayishi va qulay anatomik patakning mavjudligi (2-rasm).

#### **Bolalar poyabzaliga qanday qo'shimcha xususiyatlarni qo'shishni xohlaysiz?**




**2-rasm. Respondentlarning javoblari**

Ushbu bobda antropometrik tadqiqotlar natijalari ham keltirilgan. Ular davomida bolalar maktabgacha yoshdagi guruhiga mos ravishda 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan 1020 nafar, shundan 507 nafar qiz va 513 nafar o'g'il bola tadqiq etilgan. O'lchovlar Toshkent shahri va Toshkent viloyati maktabgacha ta'lim muassasalarida o'tkazildi.


Oyoq panjasining o'lchovli belgilari kontakt va plantografik usullar bilan olingan bo'lib, deformatsiyaning tarqalishini aniqlash uchun plantografik va fotografik usullar qo'llanilgan.

Plantogrammalar skaner va qo'shimcha qurilma yordamida takomillashtirilgan usul bilan olingan. Olingan plantogrammalarni qayta ishlash AutoCAD grafik muhitida amalga oshirilgan (3-rasm).



**3-rasm. AutoCAD 2007 grafik muhitida oyoq panjasi plantogrammasini qayta ishlash.**

Ushbu bobda AutoCAD grafik muhitida rasm va uni qayta ishlash yordamida oyoq panjasining oshiq-boldir bo'g'im holati haqida ma'lumotlarini olish uchun ishlab chiqilgan uslubiyoti keltirilgan. Ishlov berish bolaning oyog'ida valgus yoki varusining mavjudligini aniqlashga imkon berdi (4- rasm).



**4-rasm. AutoCAD 2007 grafik muhitda oyoq panjasining oshiq-boldir bo'g'imni suratga olish**

Natijalarga Exel integral tizimidan foydalangan holda matematik statistika yordamida qayta ishlov berildi va maktabgacha yoshdagi bolalarning oyoq panjasini uzunligining o'rtacha ko'rsatkichlari hozirda qo'llanilayotgan GOST 11373 bilan solishtirganda oshganligini aniqlashga imkon berdi (1-jadval).


**1-jadval**

**Oyoq uzunligining o'rtacha qiymatlarini taqqoslash, mm**


Yosh	Oyoq uzunligi (olingan ma'lumotlar)		Oyoq uzunligi (GOST 11373-88)
	1 kichik guruh	136,7-175,5	156,1
2 kichik guruh	164,1-206,7	185,4	182,3

Antropometrik o'lchovlar natijalariga ko'ra, ikki yosh guruhlar uchun korrelyatsiya maydonlari tuzildi: 3-4 yosh va 5-6 yosh (5 va 6-rasmlar), uning asosida oyoqning uzunligi va aylanasi o'lchami o'rtasida sezilarli korrelyatsiya aloqasini aniqlash mumkin.





**5-rasm. 3-4 yoshdagi qizlar va o'g'il bolalarning oyoq uzunligi va kengligi o'rtasidagi korrelyatsiya maydoni va regressiya tenglamasi**




**6- rasm. 5-6 yoshdagi qizlar va o'g'il bolalarning oyoq uzunligi va aylanasini o'rtasidagi korrelyatsiya maydoni va regressiya tenglamasi**


Olingan ma'lumotlar Respublikamizda poyabzal ishlab chiqarishga GOST3927 bo'yicha 2 poyabzal qolipining to'liqligini tavsiya qilish imkonini berdi.

Olingan plantogrammalar va oshiq-boldir bo'g'im fotosuratlarini asosida eng keng tarqalgan kasalliklarning oldini olish uchun mo'ljallangan, to'g'ri profilaktik poyabzalni loyihalash uchun O'zbekiston bolalarining oyoq panjalari orasida deformatsiyaning tarqalishi aniqlangan (7 va 8-rasm). Diagrammalardan ko'rinib turibdiki, deformatsiyaning eng keng tarqalgan turi bu pasaygan gumbaz - qizlar uchun 15-22%, o'g'il bolalar uchun esa 12-17%. Bundan tashqari, yoshi bilan, turli darajadagi yassi oyoqli va valgusli bolalar soni ortib boradi. Shunday qilib,

to'g'ri profilaktik poyabzalni kiyish bu ko'rsatkichlarni kamaytirishga yordam beradi.



**7- rasm. Maktabgacha yoshdagi qizlar orasida oyoq panjasi deformatsiyalarining tarqalishi**



**8-rasm. Maktabgacha yoshdagi o'g'il bolalar orasida oyoq panjasi deformatsiyalarining tarqalishi**

Tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatdiki, eng keng tarqalgan deformatsiyalar bu pasaygan gumbaz, yassi oyoq va valgus deformatsiyasidir. Shuning uchun keyingi tadqiqotlar uchun ob'ektlar sifatida yassi oyoq va valgus deformatsiyasining oldini olish uchun poyabzal tanlangan.

Dissertatsiyaning «**Bolalar oyoq panjalarining deformatsiyalanishini oldini olish uchun bolalar poyabzali konstruksiyasini ishlab chiqish**» uchinchi bobida yassi oyoq va oyoqning valgus deformatsiyasini oldini olish uchun bolalar poyabzali konstruksiyasi ishlab chiqarish uchun tadqiqotlar olib borilgan. Bunday og'ishlari bo'lgan bolalar uchun poyabzallar qattiq tovon qismiga ega bo'lishi kerak, ular mavjud modellarda ko'jkartonidan yoki qattiq teridan yuqori balandlikka va bikir dastakga ega bo'lgan (9, a-rasm).


Biroq, poyabzaldagi bikir dastakning vazifasi poyabzalning shaklini saqlashdir. Bu shuni anglatadiki, kiyganda, u o'z shaklini saqlab turishi kerak, GOST 9135 esa harakatlanmasligi kerakligini tasvirlamaydi. Fiziologik jarayon bo'lgan pronatsiyada (oyoqning "frontal" o'qga nisbatan ichkariga qarab harakatlanishi), blokirovka yoki cheklash harakatning buzilishiga va suyaklarning anomal rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun, lateral harakat paytida oyoqni qo'llab-quvvatlash muhim, cheklash yoki tuzatish emas.

Shu bilan birga, iste'mol afzalliklarini aniqlash bo'yicha tadqiqot natijalarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, valgus deformatsiyasini oldini olish uchun poyabzallarning kamchiliklaridan biri tovon qismining juda qattiqligi, bu esa ishqalanishga olib keladi. Natijada, bolalar bu poyabzallarni yechib tashlashga harakat qilishadi, bu esa poyabzalning profilaktik ta'siri samaradorligini pasaytiradi. Shu munosabat bilan ushbu bobda tovon qismining profilaktik, qulaylik xususiyatlarini yaxshilash, shuningdek, poyabzalning gigiyenik xususiyatlarini oshirish vazifasi qo'yilgan.



**9-rasm. Baland bikir dastakli bolalar profilaktik poyabzallarining umumiy ko'rinishi (a) va ishlab chiqilgan konstruksiyasi (b)**

Profilaktik xususiyatlarga ega ishlab chiqilgan modelida (9,b-rasm), qo'yilgan vazifa, oshiq-boldir bo'g'imni mustahkamlash uchun yuqori qattiq cho'zilgan shaklli bikir dastakga muqobil ravishda, oyoqning yuqori qismidagi qo'shimcha yuqori gulchin bog'lami va oyoq kiyimning yon tomonlarida joylashgan ikki tomonlama yondor bog'lamlardan foydalanilganligi sababli hal etiladi (10, a-rasm). Qo'shimcha bog'lamlar poyabzalning tanavorida haqiqiy charmdan tayyorlangan tashqi qismlardan va qattiq noto'qima materiallardan tayyorlangan oraliq qismlardan iborat. Oyoq oshiq-boldir bo'g'imini mustahkamlash uchun zarur bo'lgan mustahkamlikni yuqori gulchin va yondor bog'lamlari parallel choklar bilan poyabzal astariga tikiladi.



**10-rasm. Loyihalangan poyabzalning umumiy ko'rinishi eskizi (a) va tanavor konstruktiv asos-modeli (b)**

Bobda materiallar tizimining qattiqligi, shuningdek, tanavorni ishlab chiqarishning texnologik parametrlarining poyabzal ustki qismi materiallari tizimining qattiqligiga ta'siri o'rganiladi. 70 mm × 38 mm namunalarning qattqlik tadqiqotlari zamonaviy YT-TDY500 qattqlik sinov qurilmasida o'tkazildi. Namuna tayyorlash va tajriba shartlari GOST ISO 18454-2011 va GOST ISO 17709-2013 bo'yicha aniqlandi.

2-jadvalda ishlab chiqilgan model uchun tanlangan ustki charmlar, astarli terilar va oraliq qism uchun noto'qma matolarning qattqlik natijalari ko'rsatilgan.

**2- jadval**

**Materiallar namunalarining qattqligini aniqlash**

№	Material	Egishning qattqligi, mkNm					O'rtacha qiymati
		Namuna №1	Namuna №2	Namuna №3	Namuna №4	Namuna №5	
<b>Ustki materiallar</b>							
1	Sigir teridan olingan xrom charm	216,7	220,9	226,7	231	215,6	222,06
2	Yarim charm	207,4	223,1	194,9	202,4	217,5	209,06
3	Buzoq terilaridan olingan xrom charm	200,2	197,9	198,2	200,3	183,2	195,96
<b>Astar materiallari</b>							
4	Astarlik uchun yarim charm	114,3	107,8	119,2	123,3	108,4	114,6
5	Qo'y terisidan astarlik charm	136,7	142,6	135,3	120,6	130,5	133,14
<b>Oraliq materiallar</b>							
9	Vatin	865,7	847,4	845,3	873,8	857,2	857,88
10	Namat	635,1	624,9	619,3	622,8	619,7	624,36
11	Fetr	459,02	461,9	453,2	448,7	455,5	455,66



Materiallarning va materiallar tizimini qattiqligini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar poyabzalning ustki qismi uchun tavsiya etilgan materiallarning eng yuqori qattiqligi sigir teridan xrom charm ega ekanligini aniqlashga imkon berdi, astar uchun - astarli tana charm, oraliq qatlam uchun materiallardan - vatin, o'rtacha qiymati 857,88 mkNm. Ushbu materiallar profilaktika poyabzalining ishlab chiqilgan konstruksiyasining qo'shimcha bo'g'implari uchun materiallar tizimini tashkil qiladi.

Tizimning qatlamlari tabiiy yoki sintetik kauchukdan rezina yelim NK 1-18% yordamida yelimli choklar bilan oldindan birlashtirilgan. Tanlangan materiallar tizimi uchun qattiqlik ko'rsatkichi 1404,67 mkNm bo'lgan va qatlamlarni qo'shimcha ipli chok bilan biriktirish orqali oshirish mumkin. Bobda ishlov beriladigan qismni yig'ishning texnologik parametrlarining uning qattiqligiga ta'sirini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar olib borildi.

Chok yo'nalishi burchagi ( $\alpha$ , grad), choklar orasidagi masofa (L, mm) va iplarining qalinligi ( $N_0$ ), kabi turli omillarning materiallar tizimining qattiqligiga (S, mkNm) kompleks ta'sirini aniqlash uchun poyabzal ishlab chiqarish jarayonida 3-jadvalda keltirilgan chegaraviy qiymatlar bo'yicha tajribalar o'tkazilgan:

**3-jadval**

**Omilar o'zgarishi darajalarining qiymatlari**

Omillarning o'zgarishi darajasi	Omil		
	$\alpha, ^\circ$	L, mm	$N_0$
	x1	x2	x3
-1	0	4	3
0	45	6	4
1	90	8	5
Intervallar o'zgarishi	45	2	1
Faktorni hisoblash	$x1=(\alpha-45)/45$	$x2=(L-6)/2$	$x3=(N_0-4)/1$

Namunalarning qattiqligini tekshirish Namangan muhandislik-texnologiya instituti laboratoriyasida YT-TDY500 qattiqlik testerida o'tkazilgan.

Ahamiyatsiz omillar olib tashlagandan so'ng regressiya modeli quyidagi shaklga ega bo'ldi:

$$y = 1418,55 + 122,29x_1 + 103,9x_2 + 44,7x_3 + 55,73x_{23} \quad (1)$$

Olingan nisbat materiallar tizimining qattiqligi (S, mkNm) chok yo'nalish burchagi ( $\alpha$ , grad), choklar orasidagi masofa (L, mm) va iplarining qalinligi ( $N_0$ ) kabi omillar bilan bog'liqligini ko'rsatadi.


Yuqori gulchin va yondor detallarning tafsilotlariga kerakli qattiqlikni (11-rasm) ta'minlaydigan yuqori gulchin va yondor bog'lamlarining texnologik parametrlari aniqlangan (4-jadval).



material yoki astarli charm 7 bilan qoplanadi va pastki qatlamiga 4 yopishtirilgan. Qo'shimcha detalning uzunligi oyoq uzunligining 1/5 qismini, kengligi tovon kengligining 1/2 qismini tashkil qiladi va uning maksimal balandligi formula bilan aniqlanadi:

$$x = A \cdot \operatorname{tg} \alpha, \quad (2)$$

Bu yerda  $x$  - qo'shimcha detal balandligi,  $A$  - tovonning 1/2 kengligi,  $\alpha$  - tovonning pronatsiya burchagi. Barcha qatlamlar perimetri bo'ylab chetidan 2-5 mm masofada ichki to'quvning ikki ipli tikuvi bilan mahkamlanadi. Patakni poyabzaldan chiqarish qulayligi uchun to'qima tasmadan ilmoq-quloqcha 8 tikiladi.



## 12- rasm. Bolalar poyabzallari uchun ichki profilaktik patak konstruksiyasi

a) ichki patakning umumiy ko'rinishi, b) A-A ichki patak kesmasi va B-B kesmasi C) tayyor mahsulot ko'rinishi.

Tavsiya etilgan profilaktik patak (12-rasm) bolalarda gumbaz pasayishi, yassi valgus, valgus deformatsiyasi kabi oyoq panjasidagi statik deformatsiyalarning oldini olish va ularni bartaraf etish uchun mo'ljallangan.

Ishlab chiqilgan profilaktik poyabzal va ichki patak konstruksiyasi uchun konstruktiv va texnologik hujjatlar tuzilgan. Shuningdek, ishlab chiqilgan konstruksiyalar ishlab chiqarish sinovidan o'tkazilgan va korxonalarda joriy etilgan. Asosiy va ishlab chiqilgan modellar hisob-kitob qilingan va iqtisodiy samarasi yiliga 30 878 640 so'mni tashkil etgan.

Ushbu bobda zamonaviy grafik mahsulotlardan foydalangan holda profilaktik xususiyatlarga ega bolalar poyabzali detallarini avtomatlashtirilgan tarzda gradatsiyalashning takomillashtirilgan uslubiyati keltirilgan bo'lib, bu esa yangi modellarni ishlab chiqish va joriy etish xarajatlarini va vaqtini qisqartirish imkonini beradi.

## XULOSA

Ishning asosiy natijalari quyidagi xulosalar va tavsiyalarda shakllantirilgan

1. Ilgari o'tkazilgan tadqiqotlar tahlili asosida qondirilishi kerak bo'lgan profilaktik poyabzallarning asosiy talablari aniqlanib, uning umumiy tasnifdagi joyi aniqlangan; profilaktik poyabzal maishiy va tibbiy poyabzal o'rtasida oraliq o'rinni egallashi aniqlangan.

2. Profilaktik xususiyatlarga ega bolalar poyabzal shakllari va konstruksiyalarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, profilaktik poyabzallarning ratsional konstruksiyasini ishlab chiqishning zamonaviy tendensiyalarida asosiy yo'nalishlar – quyi tayanch tizimining elastik geometrik xususiyatlari o'zgarishi hisoblanadi.

3. Profilaktik poyabzallarning turli xil konstruktiv yechimlari bor muammolarni to'liq hal qilmaydi va respublikaning oyoq panjalarining antropometrik xususiyatlarini hisobga olgan holda yangi profilaktik poyabzali konstruksiyalarini ishlab chiqish yanada rivojlantirishni talab qiladi.

4. Kompyuter texnologiyasi vositalaridan foydalangan holda oyoq panjalari antropometrik tadqiqotlarning takomillashtirilgan uslubi asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda o'lchovlar o'tkazilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarning oyoq uzunligi va aylanasi o'rtasida regressiya tenglamasining asosiy statistik parametrlari aniqlangan. Natijada 3-4 va 5-6 yoshdagi qizlar va o'g'il bolalar uchun poyabzal ishlab chiqarishda umumiy poyabzal qoliplaridan foydalanish tavsiya etiladi.

5. Oshiq-boldir bo'g'imni mustahkamlash uchun poyabzalning tovon qismi konstruksiyasi takomillashtirilgan, unda tovon qismining yuqori gulchin qo'shimcha bog'lami va oyoq kiyimning yon tomonlarida joylashgan yondor ikkita bog'lamlari qo'llaniladi.

6. Kerakli qattilikni ta'minlaydigan materiallar tizimining qattiqligi yuqori gulchin va yondor bog'lamlarning texnologik parametrlarga bog'liqligi aniqlangan.

7. Poyabzal ichidagi bo'shliqni tabiiy muhitga yaqinlashtiradigan va umuman poyabzalning gigiyenik xususiyatlarini yaxshilaydigan bolalar poyabzallari uchun profilaktik xususiyatlarga ega patak konstruksiyasi ishlab chiqilgan.

8. Yangi modellarni ishlab chiqish va joriy etish jarayonini sezilarli darajada kamaytiradigan va qimmatbaho dasturiy ta'minotni talab qilmaydigan poyabzal detallarini avtomatlashtirilgan tarzda seriyaga ko'paytirish uslubi ishlab chiqilgan.

9. Ishlab chiqilgan modelning texnologik reglamenti va konstruktiv hujjatlari ishlab chiqilgan. Olingan natijalar ishlab chiqarish sinovidan o'tkazilgan va "MONOMAX" MChJ, "SKOROXOD ZAKAZ SERVIS" MChJ, "Nafis" MChJ poyabzal korxonalarida joriy etilgan.

10. Ishlanmalarni sanoat korxonalarida joriy etishning iqtisodiy samarasi yiliga 30 878 640 so'mni tashkil etadi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПРИ НАУЧНОМ СОВЕТЕ  
DSc.03/30.12.2019.Т.08.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ИНСТИТУТЕ ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ  
ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ  
ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

**ТУРСУНОВА ДИЛРАБО КУДРАТИЛЛАЕВНА**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КОНСТРУКЦИИ ДЕТСКОЙ  
ПРОФИЛАКТИЧЕСКОЙ ОБУВИ**

**05.06.03 – Технология кожи, меха, обуви и кожевенно-галантерейных изделий**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Ташкент – 2022**

Тема диссертации доктора философии по техническим наукам (Doctor of Philosophy) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за № В2021.3.PhD/Г1187.

Диссертация выполнена в Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета ([www.titli.uz](http://www.titli.uz)) и на Информационно-образовательном портале «Ziyounet» ([www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz)).

Научный руководитель:

**Илтимова Милохат Уткуровна**  
доктор философии технических наук, доцент

Официальные оппоненты:

**Нигматова Фатима Усминовна**  
доктор технических наук, профессор

**Мусаев Сайфулло Сафиевич**  
кандидат технических наук, доцент

Ведущая организация:

**Наманганский инженерно-технологический институт**

Защита диссертации состоится «14» марта 2022 года в 14<sup>00</sup> часов на заседании разового Научного совета DSc. 03/30.12.2019.T08.01 при Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности (Адрес: 100100, г. Ташкент, ул. Шохжахон, 5. Административное здание Ташкентского института текстильной и легкой промышленности, 2 этаж, 222-аудитория, тел: (99871) 253-06-06; факс: (99871) 253-36-17; e-mail: [titlp\\_info@edu.uz](mailto:titlp_info@edu.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского института текстильной и легкой промышленности, (зарегистрирована № 130) (Адрес: 100100, г. Ташкент, ул. Шохжахон, 5. Тел.: (99871)253-06-06, 253-08-08

Автореферат диссертации разослан 24 февраля 2022 года.  
(реестр протокола рассылки № 130 от 24 февраля 2022 года).



**И.К. Сабиров**  
Председатель научного совета по  
присуждению ученых степеней, д.т.н.

**А.З. Мамитов**  
Ученый секретарь научного совета по  
присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

**Н.Б. Мирзиёв**  
Председатель разового Научного семинара при научном совете  
по присуждению ученых степеней, к.т.н.

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В настоящее время в мире наблюдается увеличение числа различных заболеваний детей и подростков, что приводит к росту потребности в средствах их профилактики, в число которых входит профилактическая обувь. «Различные деформации стоп встречаются у 35-58% детей, что приводит к увеличению спроса на профилактическую обувь»<sup>3</sup>, поэтому задача совершенствования конструкции и технологии производства детской обуви, улучшение ее профилактических и гигиенических свойств занимает одно из лидирующих мест в мире на сегодняшний день.

В мировой практике проводятся научно-исследовательские работы связанные с обеспечением безопасности производимой детской обуви, внедрением современных материалов, расширением ассортимента производимой обуви, улучшением гигиенических и комфортных свойств, оптимизацией процессов производства, снижением себестоимости продукции за счет усовершенствования технологии производства. В этой связи, ведутся научно-исследовательские работы, направленные на совершенствование конструкций детской профилактической обуви.

В стране проводятся масштабные мероприятия по снижению расхода сырья, трудовых затрат и энергии при производстве кожи и обуви, использованию современных цифровых средств управления, позволяющих производить ресурсосберегающие технологии и сокращать сроки производства и внедрения новых моделей. Ускоренный темп развития в Республике кожевенно-обувной отрасли связан с ускоренным экономическим ростом страны, инвестиционным потенциалом данной отрасли и всесторонней поддержкой со стороны правительства. В Указе Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 январь 2022 года «От Стратегии действий — к Стратегии развития Республики Узбекистан на 2022-2026 годы» определены задачи в том числе «...Развитие кожевенно-обувной промышленности и увеличение объема производства продукции в отрасли в 3 раза. Увеличить объем промышленного производства кожаных изделий к 2026 г. за счет восполнения имеющихся пробелов в производстве обуви и кожаных изделий, а также импортозамещающей продукции в регионах, увеличив при этом производство готовых кожгалантерейных изделий в 2,3 раза, обуви – в 2,8 раза, кожгалантереи – в 2,6 раза, одежды из кожи – в 2 раза, увеличить производство импортозамещающих комплектующих и другой продукции в 1,3 раза и увеличить экспорт отрасли до 1 150,0 млн. долларов США»<sup>4</sup>. Для выполнения поставленных целей важное значение имеет разработка новых конструкций детской обуви с профилактическими свойствами и их внедрение на предприятиях Республики.

---

